

TECHNOLOGY OF USING TEXTBOOKS DESCRIBING EVENTS AND EVENTS IN NATURAL GEOGRAPHY OF CENTRAL ASIA AND UZBEKISTAN

Janzakov Anvar Botirovich

Nizomiy nomidagi TDPU

Annotation: In teaching the natural geography of Central Asia and Uzbekistan in secondary schools, the use of teaching aids describing events and happenings and meaningful lessons.

Keywords: video, mobile communication, relief, dams, reservoirs.

Umumta'lim maktablarda O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiya fani o'qitishda, voqea va hodisalarni tasvirlaydigan o'quv vositalaridan foydalanish texnologiyasidan foydalanishida, o'quv vositalarini ikki guruhga bo'lib o'rganiladi:

hajmli o'quv vositalari;

geografik voqea va hodisalarni tasvirlaydi.

Hajmli o'qitish vositalari bilan ishlash texnologiyasi. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiya darslarida hajmli o'qitish vositalaridan foydalaniladi. Bunga modellar va maketlar kiradi. Modellar geografik voqea va hodisalarni hamda ob'ektlarni uch o'qli (xajmiy) tasviri xisoblanadi. Ular ma'lum bir masshtabda kichraytirilgan bo'ladi yoki o'z o'lchamida tasvirlanadi. Ammo, hajmli modellarda xatoliklarga ham yo'l qo'yiladi. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasining geologiya darslarida yer sharining modeli ko'proq ishlatiladi. Barcha voqea va hodisalarni modellarini o'quv maqsadlariga muvofiq emas. Masalan, vulkanni geyzarlarini, tog'larni, sunami, sel, kuchli shamolarni sodir bo'lishi modelini maqsadga muvofiq emas. Chunki ular tabiiy jarayonlarida bemalol ishlatish mumkin, dars jarayonida termometr, barometr, flyuger, kompas va boshqa asboblarni modellaridan ham foydalanish mumkin.

Modellar yordamida o'quvchilar ularni tuzilishini va ishlashini tez o'rganib olishadi. Modellar yordamida kanallar, to'g'onlar va suv omborlari tuzilishi va ishlashini ham ko'rsatish mumkin.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiya ta'limida maketlar ham keng

qo'llaniladi. Maketlar geografik ob'ektlar, voqea va hodisalarning soddalashtirilgan nusxasi hisoblanadi. Ular tabiiy geografik hamda ixtisodiy va ijtimoiy geografik maketlarga bo'linadi.

Tabiiy geografik maketlarga landshaftlar, rel'ef, daryo vodiysi, tog'lar, cho'qqilar, g'orlar, maketlari kiradi. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografik yer yuzasi shaklini o'rganishda rel'ef shakllari maketlari juda katta ahamiyatga ega. Rel'ef bo'yicha bilimlarni o'quvchilarni o'zlashtirishi juda qiyin kechadi, chunki rel'ef uchta o'lchamli hisoblanadi. Shuning uchun rel'efni o'rganishda dalada olib borilgan kuzatishlar kata ahamiyatga ega. Geografik o'lkalarda rel'efni shakllanishini ko'ribgina qolmasdan balki o'rganilayotgan ob'ekt bevosita o'rganiladi, o'lchamlari aniqlanadi, har tomonlama o'rganiladi va aniq tasavvurlar xosil bo'ladi. Rel'ef haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni oson yo'llaridan biri geografiya maydonchasida ularning shakllarining maketlarini yasashdir.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografik o'lkalarini maketlardan foydalanib dars o'tganda o'qituvchi maketni hamma tomonini ko'rsatishi lozim, shundagina mazkur maketda tasvirlangan geografik ob'ekt yoki voqea va hodisalar haqida o'quvchilar ongida to'la va aniq tasavvurlar hosil bo'ladi.

Bunda, geografik maketlar voqealar va hodisalarni tabiiy xolatdan kartalarda tasvirlanishi uchun oraliq vosita bo'lib hisoblanadi.

Geografik rasmlar (kartinalar)dan foydalanish texnologiyasi. O'rta Osiyo

va O'zbekiston tabiiy geografiya ta'limida rasmlar juda keng qo'llaniladi. Ular orqali geografik voqea va hodisalarni tasviri bilan birga ularni o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini xam ochib beradi. Rasmlar (kartinalar) quyidagi xususiyatlarga ega:

rasmlar o'quvchilarini bilish faoliyatini tashkil qilishga imkon beradi.

Rasmlardan foydalangan holda o'qituvchi uning mazmuni haqida so'zlab berishi

mumkin, o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishi mumkin yoki o'quvchilarga rasmni mustaqil tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar berishi mumkin. Masalan, cho'l tabiati tasvirlangan rasm, Kizilqum tabiiy geografik okrigini o'rganayotgan bo'lsa o'qituvchi o'quvchilarga rasmni tahlil qilish asosida Qizilqumni asosiy rel'ef shakllarini, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida yozma ish bajarishni topshirishi mumkin. Rasm osib qo'yilganda sinfni hamma joyidan aniq ko'rinib turishi kerak;

juda yaxshi ishlangan rasm geografik ob'ekt, voqea va hodisalar haqida tasavvurlar hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ularni ayrimlari tabiatda kuzatish ishlarini o'rnini bosishi mumkin. O'quvchilar cho'l yoki tog' rel'ef shakllarini rasmda ko'rib ular to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Rasmlar ayniqsa bevosita ko'rib yoki o'rganib bo'ladigan geografik voqea va hodisalarni o'rganishda katta ahamiyatga ega;

o'quv rasmlarini (kartinalarni) aniq geografik voqea va hodisalarni umumlashgan tasviri hisoblanadi. Tabiiy geografik rasmlarda voqea hodisalarni eng muhim jixatlari oson o'zlashtiriladi, ikkinchi tomondan mazkur ob'ekt voqea hodisalarni eng muxim jixatlarini ikkinchi darajali jixatlaridan ajratib olish imkonini tug'diradi. Bilimlarni shakllantirish jarayonida tabiiy geografik rasmlarni o'rganish va taxlil qilish o'qituvchi yordamida amalga oshiriladi. Bilimlarni tekshirish va baholash esa o'quvchilar tabiiy geografik rasmlarni mustaqil ravishda o'rganishadi, taxlil qilishadi va xulosalar yozishadi. Rasmlarni o'rganishdagi bunday yondoshish ikkita muxim ta'limiy muammolarni yechishga imkon beradi: o'quvchilarni geografik bilish metodlari bilan tanishtiradi; o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni, abstrakt nazariy tuzilmalarni ishlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Bunday faoliyat o'quvchilarni hissiy qabul qilishiga tayanadi.

Tabiiy geografik rasmlardan foydalanishning asosiy talablari quyidagilardan iborat:

tabiiy geografik rasmlar dars mavzusi va mazmunniga mos tushishi lozim;

tabiiy geografik rasmda geografik ob'ekt, voqea va hodisalarni eng muxim xususiyatlari tasvirlangan bo'lmog'i lozim;

tabiiy geografik rasmlar aniq va ravshan ko'rinishi lozim.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda keng foydalanish mumkin. Mazkur rasmlarni tahlil qilish asosida o'quvchilar rasmlar yordamida umumiy tushunchalar oson va tez shakllantiriladi. Masalan, yassi va to'liqsimon tekisliklar, bo'rmali, palaxsali va qoldikli tog'lar, cho'llar, tog'lar va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Taylakov N.I., Isroilova L. Interaktiv elektron doska bilan ishlash usullari//Fizika, matematika va informatika.-Toshkent,2019
2. Qurbaniyazov R. Geografiya o'qitish metodikasi. Urganch. 2001 y.
3. Vaxobov X., N.R.Alimkulov., N.B.Sultonova. Geografiya o'qitish metodikasi., Toshkent: - "Nodirabegim" nashriyoti. 2021 yil.
4. Abdullayeva D.N. Geografiya ta'limida axborot kommunikatsion va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O'quv-uslubiy qo'llanma.-T.: "Ilm ziyo zakovat", 2021
5. www.informika.ru/text/magaz/higher/3_96/85-100.htm